


II. SANOAT



Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17 397,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 129,6 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-mart
mlrd. so'm**



**Yanvar-mart
FHI, % da**




■ Mlrd. so'm ■ FHI, % da



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida 27 779,6 ming so'm, Xonobod shahrida 16 408,9 ming so'm hamda Andijon shahrida 4 884,5 ming so'm va Xo'jaobod tumanida 4 553,0 ming so'mni tashkil etmoqda.

Yanvar-mart ming so'm



Yanvar-mart o'sish sur'ati, % da



■ Ming so'm ■ O'sish sur'ati, % da



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 16 864,4 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,9 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asaka tumani (56,8 %), Andijon shahri (13,5 %), Xonobod shahri (4,3 %), Qo'rg'ontepa tumani (4,1 %) hamda Baliqchi tumani (4,1 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Asaka tumanida (153,1 %), Oltinko'l tumanida (123,7 %), hamda Andijon shaharida (112,1 %) kuzatildi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

B seksiya

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 387,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % ini tashkil etdi.



Yanvar-mart

2023-y. 69,7 mlrd. soʻm

2024-y. 387,0 mlrd. soʻm

FHI, % da

2023-y. 87,6 %

2024-y. 134,8 %

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16 864,4 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,9 % ini tashkil etdi.

Yanvar-mart


2023-y. 10 240,3 mlrd. soʻm

2024-y. 16 864,4 mlrd. soʻm

FHI, % da


2023-y. 99,2 %

2024-y. 129,8 %




O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Yengil avtomobillar




Yumshoq bug'doy va spelta uni




Paxta tolasi




Paxtadan yigirilgan ip




Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar




Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim




Neft



80 % dan kam bo'lmagan etil spirti



Paxta chigiti



2024-yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 57,5 ming dona yengil avtomobillar (2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 73,5 % ga oshgan), 13,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni, (38,2 % ga kamaygan), 18,7 ming tonna paxtadan yigirilgan ip mahsulotlari (33,4 % ga oshgan) ishlab chiqarilgan.




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati,
o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart	2023-yil yanvar-mart	Farqi, +/-
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan), dona	57 530	33 163	24 367
Paxtadan yigirilgan ip - tonna	18 686,6	4 108,8	14 577,8
Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna	13 463,1	21 778,5	-8 315,4
Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘siqlar - tonna	79,9	72,0	7,9

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi 66,4 % (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 149,3 %), kiyim ishlab chiqarishining ulushi 8,0 % (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,2 %), paxtani qayta ishlash va ip gazlama sanoatining ulushi 12,0 % (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,4 % (2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 110,9 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023-yilning yanvar-mart oylarida – 0,1), o‘rta-yuqori texnologiyali – 71,5 % (2023-yilning yanvar-mart oylarida - 54,1 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,2 % (2023-yilning yanvar-mart oylarida –3,3 %) va quyi texnologiyalisi – 26,3 % (2023-yilning yanvar-mart oylarida – 42,5 %)ni tashkil etdi.




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati 11,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 72,3 % ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 42,1 % ni tashkil etgan.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 87,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 142,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 122,7 % ni tashkil etgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,4 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 741,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,3 % ni tashkil etgan.

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 26,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 108,4 mlrd. so'ni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-mart oylarida mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,6 % ni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,0 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 100,8 % ga oshgan, ishlab chiqarish hajmi 2 029,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 133,6 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 68,5 %, fizik hajm indeksi 49,3 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 11 546,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 51,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 76,2 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan 3,0 martani hamda ishlab chiqarish hajmi 161,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 109,5 % ni tashkil etgan.


Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, elektr uskunalari ishlab chiqarish ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 185,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 164,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni fizik hajm indeksi esa 115,4 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 108,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 97,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni fizik hajm indeksi esa 61,0 % ni tashkil etgan.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 84,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,3 mlrd. so'mga oshganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart	2023-yil yanvar-mart	Farqi, +/-
Elektroenergiya, mln. kVt.s	73,4	75,6	-2,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	-	2,5	-2,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart	2023-yil yanvar-mart	Farqi, +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	48,3	21,7	26,6
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	9,0	4,2	4,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 48,3 mlrd. so'm yoki 2,2 martaba ortganligi kuzatildi. Shuningdek, oqava suvlarning shlami bo'yicha xizmatlarda 9,0 mlrd. so'm hajm bajarilgan.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi
2024-yilning yanvar-mart oylarida
(jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, foizda)


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 786,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Buloqboshi, Izboskan tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100,0 % kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baliqchi tumani (85,4 %), Ulugʻnor tumani (84,5 %), Shahrixon tumani (83,1 %), Andijon tumani (79,7 %) tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar Asaka tumani (1,5 %), Xonobod shahri (11,8 %), Andijon shahri (26,3 %)ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 10 896 ta sanoat korxonalari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 5 143 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 393 tasi (faoliyat ko'satayotgan korxonalar umumiy sonining 27,1 %) Andijon shahriga, 572 tasi (11,1 %) Andijon tumaniga, 464 tasi (9,0 %) Asaka tumaniga, 377 tasi (7,3 %) Shahrixon tumaniga va 343 tasi (6,7 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.




- Yangi tashkil etilgan korxonalar, birlikda
- Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar, birlikda

Yangi tashkil etilgan korxonalar, birlikda



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar, birlikda



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishda o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir;

Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalariga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

Mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqaradigan sanoat – yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq mezon hisoblanmasa ham, o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.